



## QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY VA HARBIY-MA'MURIY UNVON HAMDA MANSABLAR

**Odilov Saidbek Anvarjon o'g'li**

Andijon Davlat Universiteti Tarix Fakulteti 3-Bosqich Talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6509546>

**ANNOTATSIYA:** Maqolada Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan harbiy unvonlar, ularning darajalari va faoliyati haqida hamda davlat tomonidan belgilangan maoshlari borasida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mingboshi, Qo'shbegi, Botirboshi, Qal'abon yoki qutvol, Yovar, Xos soqchilar, Ponsadboshi, To'pchiboshi, To'qsabo,

O'zbekistonda mavjud bo'lgan uchala davlatda ham o'ziga xos harbiy mansablar mavjud bo'lgan. Ular doimo bir-biridan farqlanib turgan. Jumladan Qo'qon xonligida ham quydagi harbiy mansablar mavjud bo'lgan.

**Mingboshi.( Oliy qo'mondon)** Mo'g'ullar bosqinii davrida mavjud (ularda: timchi) ma'mur sifatida ming nafar otlig askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da'vogar bo'lgan. Bu unvon Sheralixon davrida (1842-1844 yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan. Mashhur mingboshilar Muhammad Yusuf, Shodiboy, Musulmonquli qipchoq, Muhammad Diyor, Mullo Xolbek, Mirzo Ahmad, Niyoz Muhammad, Alimquli, Abdurahmon Musulmonquli o'g'li va boshqalar bo'lganlar

**Qo'shbegi.** Harbiy qo'shinning boshlig'i. Yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshilik unvonini olishga da'vo qilardi. Qushbegi mansabiga ko'tarilgan zot alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin edi. Umarxon davrida (1810-1822) Rajab qushbegi, Muhammad Alixon zamonida Muhammad Sharif qushbegi, keyinchalik xonlik tarixida Shodmon Xo'ja qushbegi



(mingboshi), Mirzo Ahmad qushbegi (keyinchalik mingboshi mansabiga ko'tarilgan) ma'lum o'rin egallaganlar.

**Botirboshi** . Botir bahodirlar boshlig'i. Besh yuz kishidan ko'p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul bo'lgan. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish ishlariga ham boshchilik qilgan Xonlikdagi Ulug' nahr arig'i Otabek botirboshi sarkorligi ostida amalga oshirilgani ma'lum.

**Voli yoki voliy (noib, muovin)** . Viloyat va tumanlarda xonning o'rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma'muriy ishlariga boshchilik qilgan.

**Qal'abon yoki qutvol** . Qo'qon xonligining chegeralarida joylashgan qal'a va istehkomlarining hokimi bo'lib, shu hududlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo'lgan. Harbiy maqsadga ko'ra, qal'abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlangan. Lekin mahalliy manbalar ma'lumotiga qaraganda, ba'zan xon nomaqbul kishini o'zidan chetlatish uchun ham uzoqdagi qal'alarga ularni hokim qilib yuborardi. Otaliq Mallaxon davrida Turkiston o'lkasida shunday surgunda bo'lib qaytgan edi.

**Qo'rboshi**. Qurol-aslaha ishlab chiqarish ustaxonasi va omborxonasi boshlig'i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo'rboshi qo'rxona, miltiqxonasi, to'pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo'lgan.

**Yovar**. Amiri lashkar maxsus bo'linmasi boshlig'i. Dastasi yuz nafar askardan iborat edi. Yovar o'z dastasi yoki to'bining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib berardi. Yovarlari xon devonining hujjatlarida g'allagir (g'alla oluvchi), javgir (bug'doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida qayd etilgan. Ba'zan yovar biror ariq (jo'y) yoki anhora ham sohib bo'lib, xizmati uchun «mirobona» haq olgan. Ba'zi hujjatlarda yovar to'pchilar dastasining boshlig'i hamda qurol yasovchilar ustaxonasining sardori sifatida tasvirlangan. Mahalliy manbalardan «Tarixi Alimquli amirlashkar» asarida Xayr Muhammad yovar amirlashkar shaxsiy dastasining boshlig'i sifatida tilga olingan.



- **Xos soqchilar.** Askarlarni jangda ruhlantirib .Chekinayotganlarga burch haqida eslatib turish ham ularning vazifalariga kirgan
- **Ponsadboshi.** Tarkibida besh yuz nafar guruh rahbari
- **Yuzboshi Yuz.** Kis,hilik guruh boshlig'i.
- **Panjohboshi.**Ellik nafarlik harbiy to'kning boshlig'i.
- **DAHBOshi** (o'nboshi) — o'n nafarlik jangovar dastaning sardori
- **To'pchiboshi.** To'pchilar boshlig'i.
- **To'qsabo.** O'zlarining tug'iga ega bo'lgan harbiy dastaning boshlig'i (Buxoroda VII darajali mansabdor sanalgan.)

Bundan tashqari harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, botur, to'pchi, zanbarchi, qo'rchi, qorovul kabilar ham kirib, qo'shin safida, nog'orachi, surnaychi, to'g'chi (bayroqdor) kabilar ham xizmat qilganlar. Harbiylarga saroydan yiliga turli hajmdagi maosh berilgan.

Yuzboshiga bir yilda 147 kumush tanga , ellikboshiga 98 tanga, o'nboshiga 65 tanga, oddiy askarga esa 43 tanga haq to'langan. Biror bir davlatga yurish qilisgdan oldin ya'ni harbiy harakatlarn oldidan yuzboshiga 2 tilla, ellikboshi va oddiy askarga 1 tilladan berilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo O'zbek davlatchilik tarixi – Toshkent 2001
2. Usmon Jo'rayev, Qamariddin Usmonov O'zbekiston tarixi –Toshkent 2019
3. <https://arxiv.uz>
4. Zokirjon o'g'li, Sobirov Jamshidbek. "QO'QONDA XUDOYORXON O'RDASI." YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR (2022): 25-27.
5. Zokirjon O'g'li, Sobirov Jamshidbek. "Fourth Representative of The Babylonian Dynasty." Global Scientific Review 1 (2022): 4-6.
6. Sobirov J. Z. O. MIRZO BOBUR VATANI FARG'ONA VODIYSI TALQINI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 280-285.